

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MENEJERNING ROLI VA AHAMIYATI

Ashurov Jahongir Ergash o'g'li

*Surxondaryo viloyati hokimligi Tadbirkorlik va
ishbilarmonlik muhitini rivojlanterish,
eksportga ko'maklashish va qo'llab-quvvatlash
guruhi bosh mutaxassisi*

Annotatsiya: Maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlanterishda menejerning roli va ahamiyati borasida fikr-mulohazalar va tahliliy tadqiqotlarning natijasi ixcham tarzda ilmiy tilda bayon qilingan bo'lib, ushbu jarayonlarda menejment tizimining aloqadorligi alohida etirof etilgan. Darhaqiqat kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatida tashkiliy ishlar va uni boshqarish muhim ahamiyatga ega, chunki barcha ishni boshqarish va korxona yoki firma faoliyatini nazorat qilish uning muvafaqiyati kaliti hisoblanadi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, menejment, bozor iqtisodiyoti, boshqaruv jarayoni, menejerlik faoliyati

KIRISH

Iqisodiyotni boshqarishning jahon amaliyotida sinovdan o'tgan, o'z o'rni va ulkan tajribaga ega bo'lgan usullaridan biri bozor iqtisodiyoti hisoblanadi. Ushbu tajribaning o'z navbatida ko'p asrlik taraqqiyot tarixi va shakllangan tizim holiga kelgan ilmi borki, bu ilm asoslarini, tajribalarini, natijalarini bilmay turib, bozor sharoitida iqtisodiyotni yuksaltirish mumkin emas.⁷⁶

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiyotda erishgan yutuqlarining asosi bozor iqtisodiyoti, mulk shakllarining takomillashuvi, iqtisodiyotdagи keskin tuzilmaviy o'zgarishlar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki maxsulotdagи ulushining ortib borishi kabilar bilan baholanmoqda.

Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tish inson manfaatlari talablariga javob beradi. Buning asosiy maqsadi iqtisodiyotning ijtimoiy yo'nalishini kuchaytirish, ishlab chiqarishni iste'molchilar talablari asosida tashkil etish hamda fuqarolar erkinligiga keng yo'l ochib berish, ularning mavjud imkoniyatlardan to'la foydalanishi, yuqori unum, tashabbuskorlik va tashkilotchilik asosida tadbirkorlik faoliyati olib borishni ta'minlashdir.

Tadbirkorlarimiz oldilariga qo'ygan yuksak maqsadlariga erishishda bir qator muammolarga duch kelmoqdaki, bu ayniqsa, yangi shakllanayotgan faoliyatini bozor

⁷⁶ S. G'ulomov "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: tashkil etish, rejalashtirish, boshkarish" darslik Toshkent - "FAN VA TEKNOLOGIYA" – 2005 3-b.

qonuniyatlari darajasida to'la anglamaslik, biznesni tashkil etish, rejalashtirish va boshqarishda boy tajribaga ega emaslikda namoyon bo'lmoqda.

METODOLOGIYA VA EMPIRIK TAHLIL

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda to'plangan amaliy tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik va ichki xo'jalikni uzoq davomli va muvafaqqiyatli faoliyat yuritishining eng asosiy omillaridan biri menejment va menejerlar faoliyati bilan bog'liq ekan.

Har qanday tadbirkorlikning menejerlik funksiyasi korxona (firma) tashkiliy-xususiy shakli va uni ishlab chiqarish bosqichlari orqali aniqlanadi. Masalan: tadbirkorlik faoliyatining boshlangach bosqichlarida barcha vazifalar tadbirkorning o'z zimmasiga yuklatiladi, uning so'nggi bosqichlarida esa maxsus menejerlarni taklif (jalb) etish imkoniyati tug'iladi va shuning negizida ularga korxonalarni boshqarishni tashkil etish majburiyati yuklanadi.⁷⁷

Boshqarish bu:

- oldindan ko'ra bilish;
- tashkil etish;
- ruxsat etish;
- kelishish;
- nazorat qilish kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

Har qanday biznes shakli va aloqadorligida asosiy bo'lib, inson bilan ishslash hisoblanadi. Menejment tizimida inson korxona faoliyatining barcha jarayonlarida asosiy bo'lib hisoblanadi. Hamma ish muayyan ishni bajarish uchun mos keladigan odamlarni izlashdan boshlanadi. Bu, odatda, inson resurslari yoki kadrlar bo'limi tomonidan amalga oshiriladi. Agar kompaniya bunday bo'limga ega bo'lmasa, bu ish odamlarni yollash bilan shug'ullanadigan menejer tomonidan bajariladi. Menejer faqatgina mos keladigan kishini topish uchun emas, balki ishlovchining farovonligi uchun ham javobgar. O'ziga yoqmagan, mos bo'limgan va haq to'lanishidan qoniqmagan ishni bajargan ishchi faoliyati unumsiz bo'ladi.

Menejerlar firmalar va tadbirkorlik subyektlariga mablag' keltiradigan, bevosita mijozlar bilan aloqa o'rnatuvchi muhim shaxslar hisoblanadi. Shunday ekan, sotishni tashkil qilish jarayonida ular arizalar to'ldiruvchi va ma'lumotlardan ko'chirma tayyorlovchilarga aylanib qolmasligi nazorat qilinishi kerak. Buning uchun menejer yordamchilari bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Menejer, albatta, chuqr iqtisodiy bilimlarga yega bo'lishi talab qilinadi, lekin shu bilan birga, u bir qancha sifatlarga ham ega bo'lishi kerak.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Tahliliy amaliy ishlardan ushbu jihat ma'lum bo'ldiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida menejment iqtisodiy nazariya bilan uzviy bog'langan. Ma'lumki,

⁷⁷ A.Murodov, L.K.Ko'paysinova, N.U.Arabov "Tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi asoslari" Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma Toshkent "ILM-ZIYo" 2016 229-b

iqtisodiy nazariyaning predmeti sotsial-iqtisodiy munosabatlardir. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlangan sari inson faolligi ortaveradi. Shuning uchun bo'lsa kerak, menejment sotsiologiya va ruhshunoslik (psixologiya) fanlari bilan ham bog'langan. Menejment rejalashtirish, statistika, buxgalteriya hisobi, moliya va kredit, mehnat iqtisodi, makro va mikro iqtisodiyot hamda boshqa fanlar bilan ham uzviy bog'langan. Shu o'rinda omadli sotuvchi (menejer) sifatlarini quydagicha sanab o'tish mumkin:

1. Natijalarga erishishga yo'naltirilganlik.
2. Kuchli manfaatdorlik bilan ta'riflanadi.
3. O'ziga ishonch.
4. O'z ishiga yarasha tashqi ko'rinishga ega.
5. Halol.
6. Ishonchli.
7. Sotilayotgan mahsulotni yaxshi biladi.
8. Diqqat bilan tinglashga qodir.
9. Tashabbuskor.
10. Istarasi issiq.
11. Yuqori kirishimlilikka ega.
12. Gaphaeladigan.
13. Yumshoq.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda menejer funksiyasi muhim ahamiyatga ega. Zero tadbirkorning faqatgina o'zi katta biznesning konstruktiv mexanizmini yarata olmaydi va u eng avvalo resurs va investitsiyaning asoschisi va taminotchisi sifatida gavdalananadi.

Xususiy va kichik biznesda avvalo xodimlarni boshqarish ish jarayonida xodimlar bilan ish amalga oshiririladigan menejerlik vazifasi muhimdir.

Xodimlarni boshqarish – bu barcha xodimlar eng samarali ishlashini ta'minlash demakdir.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. "Taqnidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". -T.: "O'zbekiston", 2017.
2. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 08 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni.
3. S. G'ulomov "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: tashkil etish, rejalashtirish, boshkarish" darslik Toshkent - "FAN VA TEXNOLOGIYA" – 2005 3-b.
4. A.Nizamov, Sh Rahmatov "Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish" O'quv qo'llanma. 2020 y.

-
5. Ладанов И.Д. Практический менеджмент. Часть I. Менеджер и менеджмент. М.: КПФ «Ника», 1992.
 6. Тейлор Ф.У. Принципы научного менеджмента. М.: Контроллинг, 1991.
 7. A.Murodov, L.K.Ko'paysinova, N.U.Arabov "Tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi asoslari" Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma Toshkent "ILM-ZIYo" 2016 229-b